

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 369 sahifa.

2025-yil, 10-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhaxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидрахаловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	



MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)



Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li

Termiz davlat universiteti Algebra va geometriya kafedrası
katta o'qituvchisi i.f.f.d.(PhD)

E-mail: shohruxz1995@gamil.com

ORCID: 0009-0004-7855-2873

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati sanoatining rivojlanish tendensiyalari, ularning miqdoriy bahosi hamda istiqbolli tarmoqlarni aniqlash masalalari ekonometrik modellash tirish asosida tahlil qilingan. 2010–2024-yillar davrida to'plangan statistik ma'lumotlar asosida sanoat ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida oziq-ovqat, to'qimachilik, koks va neftni qayta ishlash, shuningdek, boshqa nometall mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari aniqlangan. OLS regressiya usuli yordamida ishlab chiqilgan modellarda aniqlangan koeffitsiyentlarning statistik ishonchliligi, determinatsiya koeffitsiyentlari va Darbin–Uatson mezonini orqali modelning sifat darajasi tekshirildi. Tadqiqot natijalari boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish va oziq-ovqat sanoatining sanoat ishlab chiqarish hajmiga eng yuqori ta'sirga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sanoat tarmoqlari, ekonometrik model, Surxondaryo viloyati, OLS, elastiklik koeffitsiyenti, sanoat ishlab chiqarish hajmi, tadbirkorlik faolligi.

Abstract: In this article, the development trends of the Surkhandarya region's industry, their quantitative assessment, and the identification of promising sectors were analyzed based on econometric modeling. Based on the statistical data collected for the period 2010–2024, the main factors affecting the volume of industrial production were identified as food, textiles, coke and oil refining, as well as the production of other non-metallic products. The statistical reliability of the coefficients determined in the models developed using the OLS regression method, the determination coefficients, and the Durbin–Watson criteria were used to check the quality of the model. The results of the study showed that the production of other non-metallic mineral products and the food industry have the highest impact on the volume of industry.

Key words: industrial sectors, econometric model, Surkhandarya region, OLS, elasticity coefficient, industrial production volume, entrepreneurial activity.

Аннотация: В данной статье на основе эконометрического моделирования проанализированы тенденции развития промышленности Сурхандарьинской области, дана их количественная оценка и выявлены перспективные секторы. На основе статистических данных, собранных за период 2010–2024 гг., основными факторами, влияющими на объем промышленного производства, были определены пищевая, текстильная, коксовая и нефтеперерабатывающая промышленность, а также производство прочих неметаллических продуктов. Проведена статистическая надежность коэффициентов, определенных в разработанных моделях с использованием метода регрессии МНК, для проверки качества модели использовались коэффициенты детерминации и критерии Дарбина–Уотсона. Результаты исследования показали, что наибольшее влияние на объем промышленности оказывают производство прочих неметаллических минеральных продуктов и пищевая промышленность.

Ключевые слова: промышленные отрасли, эконометрическая модель, Сурхандарьинская область, МНК, коэффициент эластичности, объем промышленного производства, предпринимательская активность.



KIRISH

Surxondaryo viloyatida sanoatni rivojlantirish o'z yechimini kutayotgan va dolzarb muammolardan biri ekanligi tadqiqotlar jarayonida o'z tasdig'ini topdi. Buni birgina sanoatning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2023-yilda 7,3 foizni tashkil etgani bilan ham asoslash mumkin. Bu holat viloyatda sanoatni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va ularning taraqqiyotini ta'minlash bo'yicha aniq ilmiy xulosalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli maqolada viloyatda sanoat rivojlanishining mavjud tendensiyalarini aniqlash hamda ularni ta'minlovchi omillar ta'sirini miqdoriy baholash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Sanoatning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash maqsadida uning tarkibiy tuzilmasi tahlil qilindi. Buning uchun 2010–2024-yillar davridagi statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Asosiy tarmoqlarni tanlashda ularning jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi asos qilib olindi. Dastlabki va yakuniy davr ko'rsatkichlariga tayanilgan holda, 2010 yoki 2024-yillarda jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida 10 foizdan ortiq ulushga ega bo'lgan yo'nalishlar asosiy tarmoq sifatida ajratib olindi. Me'zon sifatida foiz ko'rsatkichlari tanlanayotganda yo'nalishlar soni hamda ularning umumiy ulushlariga e'tibor qaratildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarini hududiy darajada rivojlantirish, ularni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jumladan, G'. Abdurahmonov (2021), S. Yusupov (2022) va R. Mamatov (2023) kabi olimlar sanoat tarmoqlarining hududiy o'sish dinamikasini iqtisodiy tahlil qilishda ekonometrik yondashuvlardan samarali foydalanishgan.

Xalqaro adabiyotlarda esa Solow (1956), Romer (1990) hamda Barro va Sala-i-Martin (2004) asarlarida iqtisodiy o'sish modellarida kapital, texnologiya va ishchi kuchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali sanoat sektorining rivojlanish mexanizmlari izohlangan. UNIDO (2020) va World Bank (2022) tomonidan e'lon qilingan mintaqaviy tadqiqotlarda esa sanoatni rivojlantirishda kichik biznes faoliyatining kengayishi, mahalliy resurslardan foydalanish samaradorligi va logistika infratuzilmasining ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Surxondaryo viloyatidagi sanoat korxonalariga oid statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Hududiy iqtisodiy hisobotlardan olindi. Olingan ma'lumotlar asosida korxonalar faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari panel va regressiya tahlili usullari yordamida qayta ishlanib, sanoat rivojlanishining ekonometrik bog'liqlik modellari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan natijalarga ko'ra, belgilangan mezon asosida to'rtta yo'nalish tanlab olindi. Birinchi yo'nalish — oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'lib, mazkur yo'nalishning ulushi davr boshida 28 foizni, davr oxirida esa 14 foizni tashkil etgan, ya'ni ulush ikki baravarga kamaygan. Ikkinchi yo'nalish — to'qimachilik sanoati bo'lib, uning ulushi 33 foizdan 43 foizgacha oshgani kuzatilgan. Uchinchi yo'nalish — koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish bo'lib, 2010–2019-yillar davomida bu yo'nalishning ulushi 11–9 foiz atrofida bo'lgan, biroq 2020-yildan keyin keskin pasayish kuzatilib, 2024-yilga kelib 4 foizni tashkil etgan. Mazkur yo'nalishning dastlabki yillardagi yuqori ulushi va keyingi yillardagi keskin pasayishini hisobga olgan holda, uning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ta'siri ham baholandi. To'rtinchi yo'nalish — boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish bo'lib, ushbu tarmoqning ulushi 5 foizdan 11 foizgacha oshgan. Ayniqsa, keyingi yillarda ushbu yo'nalishda yuqori o'sish sur'atlari ta'minlangan.

Yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olgan holda, mintaqada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga tanlab olingan yo'nalishlarning ta'siri ekonometrik modellashtirish asosida o'rganildi. Barcha ma'lumotlar qiymat shaklida ifodalangani sababli, ular dastlab o'zgarmas narxlarga o'tkazilib, real qiymatlar aniqlangan. Buning uchun iste'mol narxlar indeks qo'llanilgan. Real qiymatlar asosida shakllantirilgan ma'lumotlar bo'yicha ishlab chiqilgan model quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$Y_r = -91,41 + 1,59 * F_r + 1,30 * K_r + 1,47 * KF_r + 1,64 * O_{tr}$$

Bu yerda: Y_r – Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari real hajmi mlrd. so'mda.; F_r – Surxondaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmi mlrd. so'mda.; K_r – Surxondaryo viloyatida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmi mlrd. so'mda.; KF_r – Surxondaryo viloyatida



koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmi mlrd. so'mda.; O_{tr} - Surxondaryo viloyatida boshqa nometal mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning real hajmi mlrd. so'mda.

Ishlab chiqilgan model natijalari tanlab olingan yo'nalishlarning mintaqada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari real hajmi bilan yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatmoqda. Jumladan, har bir tarmoqning ta'sirini ifodalovchi koeffitsiyentlarning adekvatligini aniqlash uchun qo'llanilgan Styudent mezon natijalari barcha holatlarda talab darajasiga javob beradi hamda ishonchlilik darajasi 99 foizdan yuqori ekanligi kuzatildi.

Determinatsiya koeffitsiyentining deyarli birga teng chiqishi tanlab olingan yo'nalishlarning to'g'ri aniqlanganini va mintaqada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarni izohlashda mazkur tarmoqlarning roli muhim ekanligini asoslaydi. Fisher mezon natijalari ham jadval qiymatlaridan yuqori bo'lib, bu ehtimollik ko'rsatkichining deyarli nolga teng ekanini ko'rsatadi. Shunday qilib, modelning statistik ahamiyati yuqori darajada ekanligi tasdiqlanadi.

Ushbu turdagi modellarda eng muhim masalalardan biri bo'lgan avtokorrelyatsiya holatini aniqlovchi Darbin-Uatson statistikasi ideal qiymatga yaqin, ya'ni deyarli ikkiga teng chiqdi. Bu esa modelda avtokorrelyatsiya muammosining mavjud emasligini anglatadi va tanlab olingan ekonometrik modelning ishonchlilikini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Surxondaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymatiga yo'nalishlar ta'sirini baholash natijalari¹

Model 1: OLS, using observations 2010-2024 (T = 15)

Dependent variable: Yr

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
const	-91.4152	25.1050	-3.641	0.0054	***
Fr	1.59268	0.104327	15.27	<0.0001	***
Kr	1.30518	0.0537840	24.27	<0.0001	***
KFr	1.46641	0.307957	4.762	0.0010	***
Otr	1.63603	0.214128	7.640	<0.0001	***
Mean dependent var	1611.378		S.D. dependent var	632.1505	
Sum squared resid	3736.826		S.E. of regression	20.37653	
R-squared	0.999281		Adjusted R-squared	0.998961	
F(4, 9)	3125.730		P-value(F)	3.95e-14	
Log-likelihood	-58.97368		Akaike criterion	127.9474	
Schwarz criterion	131.1427		Hannan-Quinn	127.6516	
rho	-0.028105		Durbin-Watson	1.991826	

Tahlil natijalari aniqlangan koeffitsiyentlar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Ya'ni, mintaqada boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning real hajmi 1 milliard so'mga oshirilsa, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmi 1,64 milliard so'mga ortadi. Mazkur model natijalari bo'yicha bu yo'nalish eng yuqori ta'sir ko'rsatmoqda. Agar ushbu yo'nalishning ulushi nisbatan past bo'lganini va faqat 2024-yilda 11 foizga yetganini inobatga olsak, uni istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida baholash mumkin.

Keyingi o'rinda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmiga e'tibor qaratish lozim. Uning koeffitsiyenti 1,59 ni tashkil etadi. Bu, tabiiyki, viloyat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligining katta ulushi hamda so'nggi yillarda agroeksportning rivojlanishi bilan izohlanadi. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilish jahon hamjamiyatida mamlakatimizning nisbiy ustunligini ta'minlayotgan bir paytda, mintaqada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish nafaqat istiqbolli yo'nalish, balki tabiiy zaruratga aylanishi zarur.

Mintaqada koks va neftni qayta ishlash sanoati ta'sir nuqtayi nazaridan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsa-da, so'nggi yillarda uning ulushi kamaygan. Fikrimizcha, bu holatning sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish mintaqada sanoat rivojiga sezilarli hissa qo'shadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ta'sirini ifodalovchi koeffitsiyent aniqlangan ko'rsatkichlar orasida eng past qiymatga ega. Aslida esa, bu soha viloyat uchun eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatning aynan shu hududida to'qimachilik uchun zarur bo'lgan xom ashyoni boshqa joylarga nisbatan yuqori sifatda yetishtirish mumkin. Xususan, jahon bozorida qimmat bo'lgan ingichka tolali paxtani yetishtirish imkoniyati aynan shu hududda yuqori.

¹ Манба: муаллиф ишланмаси



Yo'nalishlar kesimida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmlarining turlicha bo'lishi va ularning ulushi bir-biridan farq qilishini inobatga olgan holda, ta'sirni yanada aniq baholash maqsadida elastiklik koeffitsiyentlaridan foydalanildi. Buning uchun multiplikativ model ishlab chiqildi. Dastlabki tahlil natijalari koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmini ifodalovchi koeffitsiyent talab darajasida emasligini ko'rsatdi. Shu sababdan ushbu omil modeldan chiqarilib, qayta hisoblashlar amalga oshirildi va model quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$\ln(Y_r) = 1,73 + 0,40 * \ln(F_r) + 0,35 * \ln(K_r) + 0,22 * \ln(O_{tr})$$

Modelda qolgan uchta omilning ta'sirini ifodalovchi koeffitsiyentlarning adekvatlik darajasi talabga to'liq javob beradi. Ularning ishonchlilik darajasi 99 foizdan yuqori. Determinatsiya koeffitsiyenti esa deyarli birga teng bo'lib, bu modelning yuqori darajada aniqligini ko'rsatadi. Fisher mezon natijalari ham modelning umumiy mosligi va ishonchliliqi talab darajasida ekanini tasdiqlaydi. Mazkur mezon bo'yicha ehtimollik ko'rsatkichi deyarli nolga teng bo'lib, bu model natijalarining statistik ishonchliliqini yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, avtokorrelyatsiya muammosiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki bu ko'rsatkich kritik nuqtaga yaqinlashgan. Shu sababli jadval qiymatlari keltirildi: $DL=0,76$ va $DU=1,77$, shuningdek, $DL=4-0,76=3,24$ va $DU=4-1,77=2,23$ ni tashkil etadi. Ushbu mezon bo'yicha aniqlangan qiymat 3,22 ga teng bo'lib, "zone of indecision" — qarorsizlik zonasiga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur holatda aniq qaror qabul qilish imkonini bermaydi va avtokorrelyatsiya muammosi mavjud degan xulosaga kelish uchun yetarli asos yo'qligini bildiradi. Shu bois, mazkur modeldan foydalanish maqbul deb topildi (2-jadval).

2-jadval. Surxondaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymatiga yo'nalishlar ta'sirini baholash bo'yicha multiplikativ model natijalari²

Model 4: OLS, using observations 2010-2024 (T = 15)

Dependent variable: I_Yr

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
const	1.72623	0.119697	14.42	<0.0001	***
I_Fr	0.402985	0.0215759	18.68	<0.0001	***
I_Kr	0.350160	0.0178895	19.57	<0.0001	***
I_Otr	0.227109	0.0178522	12.72	<0.0001	***
Mean dependent var	7.309884		S.D. dependent var	0.408233	
Sum squared resid	0.001829		S.E. of regression	0.013525	
R-squared	0.999156		Adjusted R-squared	0.998902	
F(3, 10)	3944.843		P-value(F)	1.16e-15	
Log-likelihood	42.73570		Akaike criterion	-77.47140	
Schwarz criterion	-74.91517		Hannan-Quinn	-77.70802	
rho	-0.711434		Durbin-Watson	3.222231	

Ushbu model natijalari yuqorida keltirilganlardan biroz farq qiladi. Qiymat ko'rinishidagi ta'sirni baholashda boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning real hajmini ifodalovchi koeffitsiyent eng yuqori qiymatga ega bo'lgan bo'lsa, elastiklik nuqtayi nazaridan hisoblangan koeffitsiyent eng kichik qiymatni ko'rsatmoqda. Boshqacha aytganda, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning real hajmi bir foizga oshirilganda, mintaqada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymati 0,22 foizga ortishi aniqlangan. Bu holat mazkur tarmoqning mintaqadagi ulushi kichikligi va so'nggi yillardagi o'zgarishlar bilan izohlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyenti 0,40 ni tashkil etib, eng yuqori qiymatga ega bo'lmoqda. Xuddi shunday fikrlarni to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning real hajmini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyentlariga nisbatan ham aytish mumkin.

Olingan natijalar Surxondaryo viloyatida yuqorida qayd etilgan uch yo'nalishni rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan ekanini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mintaqada sanoatni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bilan bir qatorda, ularning barqaror taraqqiyotini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Sanoat rivoji uchun zarur infratuzilma, resurslar va yondosh tarmoqlarning talab darajasida bo'lishi, tabiiyki, soha taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Bularning barchasi esa o'z navbatida mintaqada tadbirkorlik faoliyati rivoji bilan bevosita bog'liqdir.

2 Манба: муаллиф ишланмасы



Statistik ma'lumotlar tahlili mintaqada tadbirkorlik rivojlanishi hali talab darajasida emasligini ko'rsatmoqda. Tadqiqot davrida mintaqadagi tadbirkorlik subyektlari yashovchanlik koeffitsiyenti +90,6 va -91,9 foiz oralig'ida o'zgarib turgani kuzatilgan. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, ushbu ko'rsatkich respublika miqyosida +84,9 va +8,5 foizni tashkil etgan. Bu raqamlar shuni anglatadiki, mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi korxonalarni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hali yetarli samarani bermayapti.

Yashovchanlik koeffitsiyentining -91,9 foizni tashkil etishi mintaqada korxonalar faoliyati barqarorligini mustahkamlash va ularning uzoq muddatli ishlash salohiyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Bu holat ishlab chiqarishni kengaytirish va sanoatni rivojlantirish uchun yangi metodik yondashuvlarni joriy etish zaruratini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot doirasida korxona va tashkilotlarning yashovchanlik darajasi sanoat rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida o'rganildi. Miqdoriy tahlil usullari yordamida o'tkazilgan hisob-kitoblar mintaqadagi ishlab chiqarish jarayonlarining dinamikasini chuqurroq anglash imkonini berdi. Turli mezonlar asosida o'tkazilgan tahlillar va modellarning qiyosiy tahlili natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash, yangi korxonalarning shakllanish jarayonini jadallashtirish va mavjud korxonalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini aniqlash uchun tanlangan modeldan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

$$\ln(Y_t) = 7,27 + 0,004 * YA_{t-1}$$

Bu yerda: FA – Surxondaryo viloyatida korxona va tashkilotlarning yashovchanlik koeffitsiyenti (foizda).

Ikkala ko'rsatkich orasidagi bog'liqlikni baholash uchun log-lin modeldan foydalanildi. Bu turdagi modellarda erksiz o'zgaruvchi logarifmlangan, erkli o'zgaruvchi esa logarifmlanmagan holatda olinadi. Odatda bunday model miqdoriy va foiz ko'rinishidagi o'zgaruvchilarni tahlil qilishda qo'llaniladi, chunki aniqlangan koeffitsiyentni 100 ga ko'paytirish orqali elastiklik koeffitsiyentini olish mumkin.

Taklif etilgan barcha mezonlar talab darajasiga javob beradi. Xususan, Student mezon natijalari koeffitsiyentlarning 95 foiz ishonchlilik darajasiga egaligini ko'rsatadi. Fisher mezon bo'yicha aniqlangan qiymat jadval qiymatidan yuqori bo'lgani sababli, ehtimollik ko'rsatkichi 0,02 ga teng ekani aniqlangan. Darbin–Uatson mezon esa aniqlangan qiymatning "qarorsizlik zonasi"ga to'g'ri kelishini bildiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, determinatsiya koeffitsiyenti 0,34 ni tashkil etgan. Bu esa mintaqada korxona va tashkilotlarning yashovchanlik koeffitsiyentidagi o'zgarishlar sanoat rivojlanishidagi o'zgarishlarning 34 foizini tushuntirib berishini anglatadi. Tabiiyki, bu qiymat nisbatan kichik hisoblanadi. Buning asosiy sababi sifatida yashovchanlik koeffitsiyentining beqarorligi va o'zgaruvchan dinamikasi bilan izohlash mumkin (3-jadval).

3-jadval. Surxondaryo viloyatida korxona va tashkilotlar yashovchanlik koeffitsiyentini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymatiga ta'sirini baholash natijalari³

Model 17: OLS, using observations 2011-2024 (T = 14)

Dependent variable: I_Yr

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
const	7.27491	0.0909844	79.96	<0.0001	***
YA_1	0.00422232	0.00160941	2.624	0.0237	**
Mean dependent var	7.362295		S.D. dependent var	0.372667	
Sum squared resid	1.025129		S.E. of regression	0.305276	
R-squared	0.384887		Adjusted R-squared	0.328967	
F(1, 11)	6.882887		P-value(F)	0.023679	
Log-likelihood	-1.935350		Akaike criterion	7.870700	
Schwarz criterion	9.000598		Hannan-Quinn	7.638455	
rho	0.337722		Durbin-Watson	1.058795	

Model asosida aniqlangan koeffitsiyent 0,004 ni tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki, korxona va tashkilotlarning yashovchanlik koeffitsiyentini bir foizga oshirish mintaqada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning bir yildan keyingi real qiymatini 0,4 foizga oshiradi. Ushbu natija mintaqada tadbirkorlikning barqaror faoliyati sanoat rivojlanishiga bevosita va ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mazkur natijalarni yanada to'ldirish va tahlilni chuqurlashtirish maqsadida tadbirkorlik rivojlanishini ifodalovchi yana bir muhim ko'rsatkich — faollik darajasining sanoat rivojiga ta'siri ham baholab chiqildi.

$$\ln(Y_t) = 4,04 + 0,036 * FA_{t-1}$$



Bu yerda: FA – Surxondaryo viloyatida korxona va tashkilotlarning faollik darajasi (foizda).

Model natijalariga ko'ra faollik darajasi mintaqada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymatiga nisbatan kuchli ta'sirga ega. Barcha mezonlar talab darajasida, shuningdek determinatsiya koeffitsiyentining ham nisbatan oshishi kuzatilgani holda 0,53 ni tashkil qilmoqda (4-jadval).

4-jadval. Surxondaryo viloyatida korxona va tashkilotlar yashovchanlik koeffitsiyentini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymatiga ta'sirini baholash natijalari⁴

Model 12: OLS, using observations 2011-2023 (T = 13)

Dependent variable: I_Yr

	Coefficient	Std. Error	t-ratio	p-value	
const	4.04116	0.952755	4.242	0.0014	***
FA_1	0.0365452	0.0104520	3.496	0.0050	***
Mean dependent var	7.362295		S.D. dependent var	0.372667	
Sum squared resid	0.789322		S.E. of regression	0.267874	
R-squared	0.526379		Adjusted R-squared	0.483322	
F(1, 11)	12.22532		P-value(F)	0.005001	
Log-likelihood	-0.236257		Akaike criterion	4.472515	
Schwarz criterion	5.602414		Hannan-Quinn	4.240270	
rho	0.148189		Durbin-Watson	1.488810	

Jadval ma'lumotlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan model quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Mintaqada korxona va tashkilotlar faollik darajasining bir foizga oshirilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning keyingi yildagi real qiymatini 3,6 foizga oshishiga xizmat qiladi. Bu juda muhim natija bo'lib, korxona va tashkilotlarning faollik darajasini oshirish mintaqada sanoatni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agar mintaqada tadbirkorlik faoliyati taraqqiyotini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar — yashovchanlik koeffitsiyenti va faollik darajasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikning deyarli nolga tengligi inobatga olinsa, bu amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning kutilgan darajada samara ko'rsatmasligi mumkin. Shu bilan birga, uchinchi modelda kuzatilgan zaif bog'liqlikning sababi ham aynan shu holat bilan izohlanadi. Boshqacha aytganda, yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar ko'pincha aniq maqsad va rejalarga emas, balki faqat miqdoriy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan holda faoliyat boshlayotganini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, mintaqada sanoatni rivojlantirishning yuqorida qayd etilgan muhim yo'nalishlarini inobatga olgan holda, ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shuningdek, ushbu jarayonlarga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash mintaqada sanoat rivojiga, uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini oshirishga bevosita hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov G'. (2021). Hududiy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Yusupov S. (2022). Mintaqaviy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini modellashtirish. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Mamatov R. (2023). O'zbekiston sanoat sektorining investitsion faolligi. Termiz: TDYI nashriyoti.
4. Solow R. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. Quarterly Journal of Economics.
5. Romer P. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy.
6. Barro R., Sala-i-Martin X. (2004). Economic Growth. MIT Press.
7. UNIDO (2020). Industrial Development Report. Vienna.

4 Манба: муаллиф ишланмасы



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
